

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-avgust oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3071,3 mlrd.so'mni**, o'sish **10,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **5,8 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **71,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **66,7 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3071,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 9,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning -4,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2867,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,4 % ni tashkil etdi.

***2018 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	9,4	7,0	133,2
Paxta linti, ming tonna	2,0	1,8	102,7
Aroq – ming litr 100 % spirt	706,0	794,5	88,9
Vino, ming litr	882,0	726,0	121,5
Un, ming tonna	74,4	76,5	97,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,3	6,1	119,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2181,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 5,8 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 71,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2018 yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 839,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 106,0 % ga o'sdi.

Nooziq-ovqatlar va vino-arq mahsulotlari hajmi esa 1342,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,5 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oyida 61,6 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




2017 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 38,6 % dan 2018 yilning yanvar-avgust oyida 38,5 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 48,9 % ulushini), Uchqo'rg'on (9,1 %), Namangan (8,7 %), To'raqo'rg'on (8,0 %), Uychi tumani (6,8 %), Pop (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,4 %), Chortoq (1,7 %), Norin (2,3 %) , Mingbuloq (2,4 %) va Chust (2,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 111,9 % ga), Pop (114,9 % ga), va Mingbuloq (146,0 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,7 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,6 %), Namangan (84,1 %) va Chust (82,4) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (27,4 %), Pop (33,1 %) va Uchqo'rg'on (50,4 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4200 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2040 tasi Namangan shahrida, 306 tasi Chust, 292 tasi Uychi, 284 tasi Namangan, 231 tasi Kosonsoy, 239 tasi To'raqo'rg'on, 161 tasi Chortoq, 139 tasi Uchqo'rg'on, 146 tasi Yangiqo'rg'on, 145 tasi Pop, 135 tasi Norin va 86 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 633 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 66,7 % Namangan shahri, Chust, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 sentyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80